



MUHAMMAD YUSUF HAYOTI VA IJODI TAHLILI

Nurjanov Renat¹

Ajiniyoz nomidagi NDPIning Turkiy tillar fakulteti
Turkman tili va adabiyoti yo'nalishining 2-kurs talabasi,

Abashova Dilnoza²

Ajiniyoz nomidagi NDPIning Turkiy tillar fakulteti
Turkman tili va adabiyoti yo'nalishining 2-kurs talabasi,

Guyjova Gulmira Gurbanmuhammetovna³

Ajiniyoz nomidagi NDPIning Turkiy tillar fakulteti
Turkman tili va adabiyoti yo'nalishining 2-kurs talabasi.

<https://www.doi.org/10.37547/ejsspc-v03-i02-p2-55>

ARTICLE INFO

Received: 15th February 2023

Accepted: 23th February 2023

Online: 24th February 2023

KEY WORDS

Vatan, yoshlik, mehr, muhabbat, ijod, samimiyat, obraz, janr, do'stlik, milliylik, insonparvarlik.

ABSTRACT

O'zbekiston xalqining noyob farzandi bo'lmish Muhammad Yusuf xalqimiz suygan shoir hisoblanadi. Muhammad Yusuf turli janrlarda barakatli ijod qildi. Muhammad Yusuf ijodi o'zbek adabiyotining eng katta va qimmatli yutuqlaridan biri hisoblanadi.

Hozirgi davr o'zbek milliy adabiyotining ko'zga ko'ringan iste'dodli shoirlaridan biri Muhammad Yusufdir. U o'nga yaqin she'riy to'plamlarning, o'nlab qo'shiqlarning muallifi sifatida keng kitobxonlar qalbiga kirib ulgurgan. Uning dastlabki she'rlari birinchi bor «O'zbekiston adabiyoti va san'ati» ro'znomasida 1976 yilda chop etilgan. Shundan so'ng «Tanish teraklar», «Bulbulga bir gapim bor», «Iltijo», «Uyqudagi qiz», «Ishq kemasi», «Ko'nglimda bir yor», «Bevafo ko'p ekan», «Erka kiyik» kabi jozibali she'riy to'plamlari nashr etildi. 1989 yilda esa «Uyqudagi qiz» nomli she'riy to'plami uchun unga respublika Yoshlar mukofoti berildi. U rostgo'y shoir, halol va pokiza qalb egasi. Shuning uchun ham uning she'riyati butun ma'naviyatga to'la, muhabbat haqida kuylaydimi, bevafo yor haqida qo'shiq to'qiydimi yoki tariximiz, taqdirimiz haqida kuylaydimi hamisha hayotga, haqiqatga hamnafaslik sezilib turadi. Uning she'rlari oddiy, ravon, soddaligi bilan xalq og'zaki ijodiga hamohang ko'rinadi. Shoirnig «Mehr qolur» she'rini eslang-a:

O'tar inson yaxshi-yomoni,

Mehr qolur, muhabbat qolur.

Shoir she'riyati ham shunday. Mehringizda, qalbingizda qo'shiq bo'lib qoladi. Ona diyor va istiqlool kuychisi Muhammad Yusuf noyob iste'dot egasi, odamlarni mehribon, sofdil, mard va kamtarin inson edi. Shu bilan birgalikda M. Yusuf ochiqko'ngil va hayolparast bola bo'lib, shariyat va adabiyotga mehri juda baland bo'lgan. Bunday mehrni uning qalbida buvijonisi Tursunxon ena uyg'otgan edi. Muhammad Yusuf garchi oddiy dehqon oilasida dunyoga kelgan bo'lsada, o'qish va ishlarida katta muvaffaqiyatlarga erishadi. 1978-80 — yillar oraliq'ida harbiy xizmatni o'taydi va bu davrlar shoir uchun mashaqqatli va murakkab tajribali davr bo'ladi, shoir ko'nglida „Ona vatan“ tuyg'usi yanada alanganadi. Shu tariqa shoirning keng qamrovli ijod faoliyati boshlanadi. Muhammad Yusufning qalamiga mansub dastlabki kitob 1985-yil nashrdan chiqqan bo'lib, «Tanish teraklar» deb nomlanadi. U qisqa muddat ichida



samimiy, xalq dilidan soʻzlovchi, xalq kuychisi boʻlganligi bois xalq koʻnglidan qisqa fursat ichida joy ola biladi. Uning “Ulugʻimsan vatanim” kitobi chop etilib, ommaga taqdim qilingan. Hech bir kitobxon yoʻq-ki, uning javonidan Muhammad Yusufning kitobi topilmaydigan, hech bir inson yoʻq-ki, uning misralaridan mehr, muhabbat hissin tuymagan! U shunday isteʼdotli shoir-ki, uning har bir sheʼrida xalqning quvonch-u iztiroblari, orzu va armonlarini madh ettirgan. Shoirning dilga yoqar misralarini hirgoya qilamagan bironta oʻzbek farzandi topilmasa kerak. Muhammad Yusuf sanʼatkorlar ahliga ham katta yutuq keltirgan, oʻlmas satrlarni bitgan desak ham mubolagʻa boʻlmaydi. Muhammad Yusuf Respublika kitobxonlar jamiyatida muharrir, “Toshkent oqshomi” gazetasida muxbir(1982-86); -“Gʻ. Gʻulom” nomidagi adabiyot va sanʼat nashriyotida muharrir, Respublika Axborot agentligida Bosh muharrir oʻrinbosari; “Vatan” tahririyatida maxsus muxbir; “Tafakkur” jurnalida boʻlim boshligʻi; Oʻzbekiston yozuvchilar uyushmasida adabiy maslahatchi; 1997-yildan umrining oxirgi kunlariga qadar mazkur uyushma raisining yoshlar bilan ishlash boʻyicha oʻrinbosarlari lavozimida ishlagan. Muhammad Yusuf xalqimizga qilgan fidoyi xizmatlari uchun: 1996 – yili “Doʻstlik” ordeni; 1998 – yilda “Oʻzbekiston xalq shoiri” faxriy unvonlariga sazovor boʻlgan. Muhammad Yusuf garchi sheʼriyatida sodda soʻzlardan foydalangan boʻlsada, uning mazmun mohiyatini juda ham boy, chuqur maʼnoga ega tarzda yoritib bergan:

Mendan nima qolar,
Ikki misra sheʼr
Ikki sandiq kitob
Bir uyum tuproq
Odamlar ortimdan nima desa
Men seni oʻylayman
Oʻzimdan koʻproq,
Lola, lolajonim,
Lolaqizgʻaldoq!

Ushbu sheʼrda ham inson va hayot, ona vatan tushunchalari mujassamlashgan. Xalq shoiri Muhammad Yusuf 2001-yil 30-iyulda dunyodan koʻz yumdi. Garchi u vafot etgan boʻlsada, lekin u odamlar yuragida mangu yashaydi, Muhammad Yusuf xalqning qalbidir!

Xulosa qilib shuni aytishim mumkinki, hamma inson ham vatan, ona deya kuylashi mumkin-u, ammo ona yurti maromiga yetkazib, yurakdan kuylay oladigan, xalq dilini biladigan ijodkorgina chin shoir boʻla oladi! Muhammad Yusuf bunga yorqin timsol boʻla oladi deb oʻylayman. Shoir sheʼrlari orqali odamlarning unitayozgan qadriyatlarimizni, millatimizni asrab avaylashga chorlaydi. Uning sheʼrlaridagi oddiy obrazlari, ayni paytda munis va qadrdon, tub mohiyati yani ular timsolida shu ona vatan, muqaddas tuproq, shu vatanning azizligi, moʻtabarligi aks ettirilgan. Muhammad Yusuf xalq suyib ardoqlovchi, inson boʻlganligini isbotlab berishimiz joizdir. U oʻz xalqiga shunday degan ekan: Odamlar, siz mening hayotim, Har biringiz umrim parchasi degan manoli soʻzlari bordir. Shoirning ijodiy oʻsishida uning xalqi hayoti va ustozlar mahoratini oʻrganishi muhim ahamiyatga ega boʻldi. U oʻz sheʼriyatida Ona-vatan, mehr-muhabbat, yoshlik, doʻstlik, samimimiylik va goʻzallik singari adabiy dolzarb mavzularni lirika torlariga solib oʻziga xos yoqimli va ravovon qilib aks ettirgan.



References:

1. WWW.ZIYO.COM
2. WWW.ADABIYOT.UZ
3. XX ASR o'zbek adabiyoti